

TURLI SISTEMALI TILLARDA HISOB SO‘ZLAR KLASSIFIKATSIYASI: TIPOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Xalilova Zaxro Kamoliddin qizi,

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tayanch doktoranti

Zakhro2698@gmail.com

Annotatsiya. Hisob so‘zlar predmetlarning miqdorini ifodalashda qo‘llaniladigan maxsus leksik-grammatik birliklar hisoblanadi. Ular ayrim tillarda grammatik tizimning majburiy elementi bo‘lsa, boshqa tillarda esa leksik birlik sifatida ishlatiladi. Mazkur maqolada xitoy, vietnam, hindiy, ingliz, o‘zbek, nemis va rus tillaridagi hisob so‘zlar tizimi qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganiladi. Tadqiqotda hisob so‘zlarning semantik va funksional klassifikatsiyasi ishlab chiqilib, ularning grammatiklashuv darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, Sharqiy Osiyo tillarida hisob so‘zlar majburiy grammatik element hisoblanadi, Yevropa tillarida esa ular asosan o‘lchov yoki miqdor bildiruvchi leksik birlik sifatida qo‘llanadi.

Kalit so‘zlar: hisob so‘zlar, klassifikatorlar, numerativ birliklar, tipologiya, qiyosiy tilshunoslik, semantik tasnif.

Abstract. Numeratives are special lexical-grammatical units used to express the quantity of objects. In some languages, they are an obligatory element of the grammatical system, while in others they are used as a lexical unit. This article studies the system of numeratives (or classifiers) in Chinese, Vietnamese, Hindi, English, Uzbek, German and Russian languages from a comparative-typological perspective. The study develops a semantic and functional classification of counting words and analyzes their degree of grammaticalization. The results of the study show that in East Asian languages, numeratives are an obligatory grammatical element, while in European languages they are mainly used as lexical units denoting measurement or quantity.

Keywords. Numeratives, classifiers, numerative elements, typology, comparative linguistics, semantic meaning.

Аннотация. Нумеративы — это особые лексико-грамматические единицы, используемые для выражения количества предметов. В некоторых языках они являются обязательным элементом грамматической системы, в других — используются как лексическая единица. В данной статье система нумеративы китайском, вьетнамском, хинди, английском, узбекском, немецком и русском языках изучается с сравнительно-типологической точки зрения. В исследовании разработана семантическая и функциональная классификация нумеративов и проанализирована степень их грамматикализации. Результаты исследования показывают, что в восточноазиатских языках нумеративы являются обязательным грамматическим элементом, в то время как в европейских языках они в основном используются как лексические единицы, обозначающие измерение или количество.

Ключевые слова: нумеративы, классификаторы, нумеративные единицы, типология, сравнительная лингвистика, семантическая классификация.

Kirish. Til tizimida predmetlarni sanash va miqdorini ifodalash inson tafakkurining muhim lingvistik ko‘rinishlaridan biridir. Ko‘plab tillarda bu jarayon oddiy son va ot birikmasi orqali amalga oshiriladi, biroq ayrim tillarda son bilan ot o‘rtasida maxsus birlik — hisob so‘zlar qo‘llanadi. Hisob so‘zlar predmetning shakli, hajmi, funksiyasi yoki turiga qarab ishlatiladigan birliklar bo‘lib, ular tilshunoslikda classifiers, measure words, yoki numeratives deb ataladi.

Masalan:

1. Xitoy tilida: 三本书 (sān běn shū) – uch dona kitob
2. Vyetnam tilida: ba con mèò – uchta mushuk
3. Ingliz tilida: a piece of advice – bir maslahat
4. O'zbek tilida: bir dona kitob
5. Nemis tilida: ein Stück Brot – bir bo'lak non
6. Rus tilida: кусок хлеба – bir bo'lak non

Tilshunoslikda hisob so'zlar masalasi qiyosiy tipologiya, semantika va grammatiklashuv jarayonlari nuqtai nazaridan keng o'rganilgan. Masalan, K. Allan hisob so'zlarni otlarni semantik guruhlariga ajratuvchi vosita sifatida izohlaydi [2].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi turli til oilalariga mansub tillarda hisob so'zlarning klassifikatsiyasini aniqlash va ularning semantik hamda grammatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bir qancha tilshunos olimlarning publisistik aspektida hisob so'zlar tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy ishlari mavjud. Xususan, A. Estadji [14], V.Xamidovalarning [13] maqolalarida fors tilidagi hisob so'zlarining o'rganilganlik darajasi va ularni to'g'ri qo'llash masalasi yoritilgan. S.X.Zaxrai, P. Pulaki hamda M. Beygilarning [12] hammualiflikdagi maqolasida fors va rus tillaridagi hisob so'zlari qiyosiy tahlil qilinib, ularning qo'llanilishi va tasniflanishidagi o'xshashlik va farqlar hamda har ikki tildagi hisob so'zlarining funksional xususiyatlari tadqiq etilib, ularning grammatik va semantik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Qiyosiy-tipologik metod - Turli til oilalariga mansub tillarda hisob so'zlarning mavjudligi va ishlatilishini solishtirish.

2. Semantik tahlil - Hisob so'zlarning ma'no guruhlarini aniqlash.

3. Deskriptiv metod - Har bir tilning hisob so'zlar tizimini tasvirlash.

4. Struktur tahlil - Hisob so'zlarning grammatik strukturasi o'rganish.

Tadqiqot materiali sifatida quyidagi tillar tanlandi: xitoy tili (Sino-Tibet oilasi), vyetnam tili (Austroosiyo oilasi), hindiy tili (Indo-yevropa oilasi), ingliz tili (German oilasi), o'zbek tili (Turkiy tillar), nemis tili (German oilasi), rus tili (Slavyan tillari). Bu tillar hisob so'zlar tizimining turli darajada rivojlanganligini ko'rsatish imkonini beradi.

Natijalar. Tahlil natijasida hisob so'zlar quyidagi 5 asosiy semantik guruhga ajratildi.

1. Individual predmetlarni bildiruvchi hisob so'zlar

Bu guruh predmetlarning alohida birliklarini ifodalaydi. Misollar:

1. Xitoy: 一本书 – bir kitob
2. Xitoy: 两张纸 – ikki varaq qog'oz
3. Vyetnam: một cái bàn – bir stol
4. Vyetnam: hai quyển sách – ikki kitob
5. Ingliz: a piece of paper

6. *Ingliz: a piece of furniture*

2. Hayvonlar uchun ishlatiladigan hisob soʻzlar

Bu birliklar hayvonlarni sanash uchun qoʻllanadi. Misollar:

1. *Xitoy: 三只猫 – uch mushuk*
2. *Xitoy: 两匹马 – ikki ot*
3. *Vyetnam: ba con chó – uch it*
4. *Oʻzbek: uch bosh sigir*
5. *Oʻzbek: otlar uyuri*
6. *Ingliz: a herd of cattle*
7. *Ingliz: a flock of sheep*
8. *Nemis: eine Herde Kühe*
9. *Rus: стадо овец*

3. Guruh yoki toʻda bildiruvchi hisob soʻzlar

Bu birliklar predmet yoki jonivorlar guruhini ifodalaydi. Misollar:

1. *Ingliz: a group of students*
2. *Ingliz: a flock of birds*
3. *Ingliz: a bunch of flowers*
4. *Nemis: eine Gruppe Studenten*
5. *Rus: группа людей*
6. *Oʻzbek: bir toʻda qush*
7. *Oʻzbek: bir guruh talabalar*

4. Oʻlchov va miqdor birliklari

Bu turdagi hisob soʻzlar miqdor va hajmni bildiradi. Misollar:

1. *Ingliz: a liter of milk*
2. *Ingliz: a kilo of sugar*
3. *Oʻzbek: bir kilo guruch*
4. *Oʻzbek: ikki metr mato*
5. *Nemis: ein Liter Wasser*
6. *Rus: литр молока*
7. *Hindiy: एक किलो चावल – bir kilo guruch*
8. *Hindiy: दो लीटर दूध – ikki litr sut*

5. Mavhum tushunchalar bilan ishlatiladigan hisob soʻzlar

Baʼzi hisob soʻzlar abstrakt tushunchalar bilan ishlatiladi. Misollar:

1. *Ingliz: a piece of advice*
2. *Ingliz: a bit of information*
3. *Nemis: ein Stück Information*
4. *Rus: капля надежды*
5. *Oʻzbek: bir parcha maslahat*

6. O'zbek: *bir tomchi umid*
7. Hindiy: *सलाह का एक टुकड़ा* – bir parcha maslahat

Hisob soʻzlar odatda otlarga mansub kichik sinfga oid soʻzlardan iborat. Bu soʻzlar guruhini sonlar bilan bir tuzilmada ishlatiladigan alohida *funksional soʻzlar sinfi* deb atagan maʼqul. Bunday hollarda hisob soʻzlar kvantifikatsiya vositasiga (har qanday predmetni hisoblash mumkin boʻlgan birlikka aylantirish) aylanadi. *Son+hisob soʻz* birikmasi turli tillar tarkibida mavjud. Bunday birikmani “*hisob kompleksi*” deb atash mumkin. *Son+hisob soʻz* birikmasi baʼzi tillarda otga nisbatan aniqlovchi vazifasini bajaradi, yaʼni bunday tillarda hisob kompleksi otni miqdor jihatdan tavsiflaydi. Bunday birikmada hisob kompleksi otga bogʻlangan atributiv element sifatida ishlaydi. Mas., xitoy, marathi, vyetnam kabi tillar. Aynan shu singari tillarda hisob soʻzlar majburiy grammatik element hisoblanadi va *klassifikator* deb ataladi. *Son+klassifikator+ot* konstruksiyasi klassifikatorli tillar uchun majburiy hisoblansadi, doim ham tarjima qilinavermaydi, ammo maʼlum ot tiplari uchun ishlatilishi shart hisoblanadi

Muhokama. Tadqiqot natijalari hisob soʻzlarning turli tillarda turlicha grammatik maqomga ega ekanligini koʻrsatdi.

1. Majburiy klassifikator tizimi. Xitoy va Vyetnam tillarida hisob soʻzlar grammatik jihatdan majburiy element hisoblanadi. Son bilan ot oʻrtasida klassifikator ishlatilishi shart.

Masalan:

三本书 – uch kitob

Bu yerda 本 klassifikator hisoblanadi.

2. Leksik hisob birliklari. Ingliz, Nemis va Rus tillarida hisob soʻzlar grammatik kategoriya sifatida emas, balki oʻlchov yoki miqdor bildiruvchi otlar sifatida ishlatiladi.

Masalan:

a piece of cake

ein Stück Brot

кусок хлеба

3. Aralash tizim. oʻzbek va hindiy tillarida hisob soʻzlar qisman grammatiklashgan.

Masalan:

Bir poda qoʻy - *भेड़ का एक झुंड*

Bu birliklar predmet turiga qarab ishlatiladi.

4. Semantik ahamiyat. Hisob soʻzlarning ot soʻz turkumidagi soʻzlar bilan bogʻlanishi koʻpincha predmetning:

- shakli
- hajmi
- funksiyasi

• tabiiy guruhlanishi

bilan bog'liq bo'ladi.

XULOSA. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Hisob so'zlar ko'plab tillarda mavjud bo'lsa-da, ularning grammatik maqomi turlicha.
2. Xitoy va vyetnam tillarida hisob so'zlar majburiy grammatik element hisoblanadi.
3. Ingliz, nemis va rus tillarida hisob so'zlar asosan o'lchov yoki miqdor bildiruvchi leksik birlik sifatida ishlatiladi. Bu tillarni yarim klassifikatorli tillar qatoriga kiritish mumkin.
4. O'zbek va hindi tillarida hisob so'zlar qisman grammatiklashgan.
5. Hisob so'zlarning klassifikatsiyasi asosan semantik belgilar asosida amalga oshiriladi.

Hisob so'zlar tizimi tilshunoslikda inson tafakkuri va predmetlarni kognitiv tasniflash jarayonini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aikhenvald, A. (2000). *Classifiers: A Typology of Noun Categorization Devices*. Oxford University Press.
2. Allan, K. (1977). *Classifiers*. Language.
3. Bisang, W. (1999). *Classifiers in East Asian Languages*.
4. Comrie, B. (1989). *Language Universals and Linguistic Typology*.
5. Croft, W. (2003). *Typology and Universals*. Cambridge University Press.
6. Crystal, D. (2008). *Dictionary of Linguistics and Phonetics*.
7. Dixon, R. (2010). *Basic Linguistic Theory*. Oxford University Press.
8. Greenberg, J. (1963). *Universals of Language*.
9. Lyons, J. (1995). *Linguistic Semantics*. Cambridge University Press.
10. Payne, T. (1997). *Describing Morphosyntax*.
11. Shibatani, M. (1990). *The Languages of Japan*.
12. Захраи, С. Х., Пулаки, П., & Бейги, М. (2015). Анализ системы счётных слов в персидском языке в сопоставлении с русским языком. *Вестник Московского государственного областного университета (МГОУ). Серия: Лингвистика*, (4), 184–190.
13. Хамидова, В. (2024). О тематической классификации лексем, относящихся к счётным словам в персидском языке. *Известия НУУз*, 1(10), 278–280.
14. Эстаджи, А. (2010). Анализ счётных слов в персидском языке. *Языкознание и диалект Хорасана*, (1). Мешхед.